



## CREATION AND CONSTRUCTION OF NEW MODELS OF MEN'S SUMMER POLYT-SHIRTS BASED ON THE ANALYSIS AND ASSORTMENT OF KNITTED FABRICS

Daughter of Dadajonova Mashhura Kurbanali  
Assistant of the YST department of Fergana Polytechnic Institute  
+99893 972 68 00 dadajonovamashhurakhon@gmail.com

Daughter of Dadajonova Diyorakhan Kurbanali  
Student of Fergana Polytechnic Institute, group 38-19

## TRIKOTAJ MATOLARINING TAHLILI VA ASSORTIMENTI ASOSIDA ERKAKLAR YOZGI POLIFUTBOLKASINI YANGI MODELLARINI YARATISH VA KONSTRUKSIYALASH

Dadajonova Mashhura Qurbonali qizi  
Farg'ona Politexnika Instituti YST kafedrası assistenti  
+99893 972 68 00 dadajonovamashhuraxon@gmail.com

Dadajonova Diyoraxon Qurbonali qizi  
Farg'ona Politexnika Instituti 38-19 guruh talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada erkaklar polifutbolkasi uchun mo'ljallangan matolar turlari, ularning xususiyatlari hamda konstruksiyasi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Trikotaj, furnitura, manjet, kombinatsiya, model, siluet, qoplama cho'ntak.

**Annotation:** This article presents the types of fabrics intended for men's polo shirts, their properties and construction.

**Key words:** Knitting, fittings, cuff, combination, model, silhouette, cover pocket. Moda yo'nalishi kun sayin keskin suratlarda rivojlanib bormoqda. Shunga ko'ra erkaklar kiyimi ham borgan sari hajmdor va ko'p qavatli ko'rinishga borayotganini ko'ryapmiz. Bunga 3D grafikani keng qo'llanilgani sabab bo'ladi. Moda uylari tomonidan 2020-yil mavsum namoyishlarida ko'rgazmaga chiqqan kostumlarning barchasi 3D elffektlari juda hajmdor ko'rinish oladi. Bu yilgi yangi

moda yo'nalishida ham 2018-2019-yilgi modellarni butunlay tarixga yopib yubormaymiz. Lekin ulardan farqli o'laroq bir-biriga mutanosibli jihatidan ajralib turishini aytishimiz mumkin. Jumladan hozirgi pidjklarning hech biri bel kammaridan pastga tushmaydi. Shu bilan ranglari gammasining ishlatilishi chegarasi mutloq beqiyos. Bunda shunaqangi rasmlar o'yini qo'llanilayaptiki bunda ko'z ko'rib benihoya ajablanmoqda. Ularni biz Boglioli, Giorgio Armani, Mission kolleksiyalaridan ko'rishimiz mumkin biz uni oddiy kataloglar uyg'unligi deb atashimiz mumkin. Tendensiyaning yana bir yutug'i sifatida biz erkaklar ko'ylagini kostunning bir ajralmas qismi deb qarashimiz lozimligini ETRO brendi isbotlab berdi. Bunday uyg'unlikni VALENTINO kolleksiyasida ham ko'rishimiz mumkin. Keng is'temolchilar uchun gradiyent ko'rinishida bog'langan kostumlarni ham ko'rishimiz mumkin. Yil rangiga to'xtaladigan bo'lsak hozirgi moda yo'nalishida zumrad rangi uyg'unlashganini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy kiyim juda xilma-xildir, uning tuzilishi va razmerlari odam gavdasining o'lchamlari va tuzilishi, moda yo'nalishi mo'ljallanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Kiyimning tuzilishi deb, bevosita odam tanasida kiyim hosil qiladigan fazoviy sirtga aytiladi.


O'rta yoshli erkaklar uchun uslubni shakllantirishning asosiy printsiplari qulaylik va hurmatga sazovorlik(1-rasm).

Zamonaviy erkaklar polifutbolkalari 1-rasm






Bugungi kunda rivojlanib borayotgan moda sanoatida inson doimo kiyimga ehtiyoj sezadi va uni doimoy ravishda iste'mol qiladi. Tikuv ishlab chiqarish korxonalari o'z mahsulotlarini ishlab chiqarar ekan, mahsulot tayyor bo'lgandan so'ng uni sotish, reklama qilish, haridorlar bilan kabi jarayonlaga duch kelishi tabiiy. Iste'molchilarni talabini qondirish, mahsulotlarni reklama qilishda korxonalar marketing tadqiqotlarini amalga oshirishga ehtiyoj sezadi.(2rasm)



2-rasm. Kiyimlar tanlovi












3-rasm. Gazlamalar tanlovi tahlili

Erkaklar yozgi polifutbol kasi hom – ashyosi uchun gazlama tanlash bo'yicha iste'molchilar tanlovi 51% ichki trikotaj, 30% yengil jinsi, 19 % aralash tolali gazlamalar.

Trikotaj matolari ichida jakkard matosi bosh va hosilali matolar asosida ignalarni tanlash yo'li bilan olinadigan, tarkibida protyajkalari

va jakkard halqalari bo'lgan shunday naqshli matoki, unda bahzi ignalar yangi ipni olmaydi va eski xalqalarini tashlamaydi. Undan tashqari, jakkard matosining bir qator turlari mavjud bo'lib, bular ko'ndalangiga va bo'ylamasiga to'qilgan, bir va ikki qavatli, muntazam va nomuntazam, bir va ko'p rangli, notekis yuzali, qo'lama va boshqalardir. Masalan, trikotaj matolarining yana bir o'rilish turi press bo'lib, tarkibida nabroskalari mavjud bo'lgan naqshli trikotaj matosi hisoblanadi. press matosining rasmlanishida jakkard matosidan farqli tarzda, ba'zi ignalar eski xalqalarini tashlamaydi, yangi ipni esa oladi. Ushbu matolarning ko'ndalangiga va bo'ylamasiga to'qilgan, bir va ikki qavatli, notekis yuzali va boshqa turlari mavjud. Masalan, bir qavatli fang nabroskali halqalardan tashkil topadi, yarim fangda esa nabroskali halqa ustunchalari glad halqa ustunchalari bilan almashinib keladi. Ikki qavatli fang matosining har ikkala tomoni ham nabroskali halqalardan tashkil topadi. Yarim fang matosi bir tomoni halqalardan, ikkinchi tomoni esa nabroskali halqalardan tashkil topadi. Lastik asosida olingan fang va yarim fang matolari lastik matosi singari to'quv yo'lga teskari yo'nalishda eshiladi.

### Trikotaj to'qimali matolarning o'rilish strukturasi 4-rasm


| Kiyimlarda qo'llanilishi                                                            | Trikotaj matolari                                                                    | O'rilish strukturasi                                                                  |
|-------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |

### Individual figuraning o'lchamlari 3- jadval

| T/r | O'lcham nomi                            | Belgilanishi     | Qiymati (sm) |
|-----|-----------------------------------------|------------------|--------------|
|     |                                         |                  | Pidjak       |
| 1.  | Bo'y                                    | P                | 176          |
| 2.  | Ko'krak aylanasi                        | O <sub>r</sub>   | 104          |
| 3.  | Bel aylanasi                            | O <sub>r</sub>   | 94           |
| 4.  | Bo'kksa aylanasi                        | O <sub>6</sub>   | 106          |
| 5.  | Yeng uzunligi                           | D <sub>p</sub>   |              |
| 6.  | Orqa bel uzunligi                       | D <sub>cp</sub>  | 65           |
| 7.  | Bo'ksa balandligi                       | B <sub>6</sub>   | 46           |
| 8.  | Buyum uzunligi                          | D <sub>n</sub>   | 22.5         |
| 9.  | Ort o'miz uzunligi                      | Шшз              | 78.5         |
| 10. | Orqa kenglik                            | Ш <sub>c</sub>   | 8.2          |
| 11. | O'miz kengligi                          | Ш <sub>np</sub>  |              |
| 12. | Ko'krak kengligi                        | Ш <sub>r</sub>   | 21,4         |
| 13. | O'miz balandligi (chizmadan o'lchanadi) | B <sub>npз</sub> | 17<br>22,3   |
| 14. | Old o'miz balandligi uzunligi           | B <sub>npn</sub> | 25           |
| 15. | Yeng uchi kengligi                      | Ш <sub>pn</sub>  | 27,3         |
| 16. | Yeng qiyalarni balandligi               | B <sub>ok</sub>  | 14,5         |

### 4- jadval Asos konstruksiya qurish uchun qo'shimchalar

| T/r | Qo'shimchalar nomi                | Belgilanishi     | Qiymati (sm) |
|-----|-----------------------------------|------------------|--------------|
| 1.  | Ko'krak yarim aylanasi qo'shimcha | П <sub>cr</sub>  | 3 – 4        |
| 2.  | O'miz chuqurligiga qo'shimcha     | П <sub>np</sub>  | 1 – 1.5      |
| 3.  | Orqa kenglikka qo'shimcha         | П <sub>шc</sub>  | 0.5          |
| 4.  | O'miz kengligiga qo'shimcha       | П <sub>шnp</sub> | 1.5 – 2      |
| 5.  | Ko'krak kengligiga qo'shimcha     | П <sub>шr</sub>  | 1 – 1.5      |



## Futbolka va yeng asos konstruksiyasi

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga navbatdagi murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020 yil 25 yanvar. № 19 (7521).
2. N.G.Abbasova, T.A.Ochilov. "Gazlamashunoslik". T.: 2010
3. B.A.Buzov, N.D.Alimenkova "Yengil sanoat mahsulotlari material-shunosligi" (Tikuv buyumlari). O'quv qo'llanma. "Akdemiya". Moskva. 2010
4. Н.М.Конопальцева, П.И.Рогов, Н.А.Крюкова "Конструирование и технология изготовления одежды из различных материалов". «Академия» Москва 2007
5. X.H.Komilova, N.K.Hamroyeva. "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". Toshkent. "Cho'lpon". 2011 yil

### Internet manzillari

<http://uztextile.uz>  
[www.textileworld.com](http://www.textileworld.com)  
[www.fashion.about.com](http://www.fashion.about.com)  
[www.modanews.ru](http://www.modanews.ru)